





Nogironligi bor insonlar bandligini ta’minlash uchun kafolatlar


Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen bandligingni ta’minlashing uchun nimalar qilishing mumkinligi haqida bilib olasan.
	Sen boshqa insonlardek yashashing uchun **ish bilan ta’minlanishing** juda muhim.
	**Seni ishga joylashtirish haqidagi qonunlar:** • Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi 27-modda • O‘zbekiston Konstitutsiyasi 57-modda • 2020-yil 15-oktyabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi 641-sonli qonun • 2020-yil 20-oktyabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli qonun • 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qaror
	Birlashgan Millatlar Tashkiloti – bu butun dunyodagi insonlarning huquqlarini himoya qiladigan tashkilot.


	**“Aholi bandligi to‘g‘risida”**gi qonunning **642-sonli 39-moddasiga** ko‘ra tashkilotlarda senga **3 foizli** zaxira ish o‘rinlari ajratilishi kerak.
	**Zaxira ish o‘rni** — bu yordamga muhtoj, kam daromadli insonlar uchun **ajratiladigan ish o‘rinlari**.
	**Masalan:** ● Tashkilotda 20 ta ishchi bor bo‘lsa, 3 ta ish o‘rni nogironligi bor insonlar uchun ajratilishi kerak.
	Nogironligi bor insonlar uchun tashkilotlarda ish o‘rni ajratish tartibi **Vazirlar Mahkamasining 965-sonli qaroriga ko‘ra** amalga oshiriladi.
	Ish o‘rni ajratishning bosqichlari: 1. Eng kamida 20 ta ishchisi bor tashkilotlar har yili 1-avgustgacha nogironligi bor insonlarga **ajratilgan ish o‘rni sonini** belgilaydi.
	2. **Ajratilgan ish o‘rni soni haqida ma’lumotlar** 15-avgustgacha bandlik bo‘limiga yetkazilishi kerak.


	3. Bandlik bo‘limi 1-sentyabrgacha nogironligi bor insonlarga ajratilgan ish o‘rinlari uchun **inson ijtimoiy xizmatlar markazi** bilan majburiy kelishadi.
	4. Barcha takliflar hokimiyatga tasdiqlash uchun yuboriladi.
	5. Har yili 1- oktyabrgacha hokimiyat nogironligi bor insonlar uchun ajratilgan ish o‘rinlarini tasdiqlaydi.
	6. Bandlik bo‘limi ajratilgan ish o‘rinlari tasdiqlanganidan keyin 5-oktyabrgacha ish beruvchi tashkilotlarga yetkazadi.
	7. 20 tadan ko‘p ishchisi bor tashkilotlar yil davomida nogironligi bor insonlar uchun ish o‘rini ajratishadi.
	8. Bandlik bo‘limi tashkilotlar nogironligi bor insonlar uchun ish o‘rni ajratishini yil davomida nazorat qilishi kerak.

	Tashkilotlar ish o‘rni ajratishda ish senga **mos kelishini** hisobga olishi kerak.
	Bandlik bo‘limi yangi yildan 5 oy oldin shifokorlardan sening barcha ma’lumotlaringni oladi.
	Tashkilotda sen uchun ajratilgan ish o‘rinlari kamaytirilsa, bandlik markaziga xabar berishi kerak.
	Tashkilotlarda ishlab chiqarish kamaytirilsa, sen uchun ajratilgan ish o‘rnida ishlayotgan insonlar ishdan bo‘shatilmaydi.
	Agar tashkilotda ajratilgan ish o‘rnidan ko‘p nogironligi bor inson ishga olingan bo‘lsa, ortiqcha ish o‘rinlari qisqarishi mumkin.
	Agar sening **mehnat shartnomang muddati** tugasa senga ajratilgan ish o‘rni bo‘shaydi.

	**Mehnat shartnomasi** – bu ishlash uchun rahbar va ishchi kelishuvi.
	**Shartnoma** – bu kelishuv.
	Tashkilot ajratilgan ish o‘rni bo‘shagani haqida 10 kun ichida bandlik bo‘limiga xabar berishi shart.
	Sen ishga kirganingda sen uchun tashkilotda sinov vaqti bo‘lmaydi.
	Tashkilotlar ajratilgan ish o‘rniga nogironligi bor insonarni olishi shart.
	Agar tashkilot ajratilgan ish o‘rniga nogironligi bor insonni olmasa, tashkilot qonunda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

	Ishchilari 20 tadan ko‘p tashkilotlar nogironligi bor insonlardan tashqari yordamga muhtoj insonlarga ham ish o‘rni ajratadi.
	Tashkilotlar yil boshida va yil o‘rtasida nogironligi bor insonlar uchun ish o‘rinlari ajratishi shart.
	Faslga qarab ishlaydigan ishlar nogironligi bor insonlar uchun ajratilgan ishlar ro‘yxatiga kiritilmaydi.
	Sen ajratilgan ishga kirishing uchun bandlik bo‘limiga murojaat qilishing kerak.
	Bandlik bo‘limi senga ajratilgan ishlar ro‘yxatni ko‘rsatadi va yo‘llanma beradi.
	Hozirda tashkilotlarga yo‘llanmalar internet orqali my.mehnat.uz dan yuborilmoqda.

	Sen bandlik bo‘limiga bormasdan ish2.mehnat.uz dan ajratilgan ish o‘rinlarini ko‘rishing mumkin.
	Sen ajratilgan ish o‘rinlarini ko‘rish uchun ish2.mehnat.uz ga kirib, «ISH TOPISH» tugmasini bosishing kerak.
	Sahifa ochilganidan keyin pastdagi: • **“Zaxiralangan ish o‘rinlari”ni** belgilaysan • keyin **“Nogironligi bo‘lgan shaxslar”** bo‘limini tanlaysan.
	**“Nogironligi bo‘lgan shaxslar”** bo‘limiga kirganidan keyin nogironligi bor insonlarga ajratilgan ish o‘rinlari soni ko‘rinadi.
	Sen ish o‘rinlarini: • joy • kasb • soha bo‘yicha qidirishing mumkin.

	Sen saytda o‘z rezyumeyingni yaratasan va o‘zingga yoqqan ishga rezyumeni yuborasan.
	Rezyume – bu sen haqingdagi ma’lumotlar yozilgan hujjat.
	Masalan sen rezyumeda: • Isming, familiyang, yoshing • Yashash manziling • O‘qigan universiteting, maktabing yoki kollejing • Qanday yo‘nalishda ishlashing • Qanday qobiliyating, bilimlaring borligini yozishing mumkin.
	Keyin rahbar sen yuborgan rezyumeni ko‘rib chiqadi.
	Agar rahbar sen yuborgan rezyume bo‘yicha sen bilan bog‘lanmasa bu ish bo‘yicha bandlik bo‘limiga murojaat qilishing mumkin.